

ISSN 2091-5527
№ 1/2025

Ўзбекистон

Kompozitsion **M**ateriallar

Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali



Ўзбекский научно-технический и производственный журнал
Композиционные материалы

UDK 391(575.1) (035.3)

XIX -XX ASRLARDA XORAZM AHOLISINING MILLIY KOSTYUMI, MATOSI VA UNING TUZILISHI XUSUSIYATLARI**Raxmatullayeva U.S., Kamilova X.H., Mirziyodova K.B., Rasulova M.K.**

Annotatsiya: Maqolada Xorazm ayollarining turli davrlarda kiyinish madaniyati va matolarni tanlab kiyishdagi o'ziga xosliklar va buning asirlar davomida rivojlanishi bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan asoslangan.

Kalit so'zlar: Xorazm, madaniyat, mato, hunarmand, texnika, qo'ng'rot, to'qimachilik, an'anaviy liboslar.

Kirish. Xorazm an'anaviy liboslari boshqa hudud liboslariga qaraganda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xorazm qadimdan O'zbekiston hududlarining shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, o'zining boy madaniyati, ertak kabi go'zal shaharlari, betakror hunarmandchiligi bilan dong taratgan. Qo'shni xalqlar bilan bo'lgan umumiy chegara madaniyat hamda amaliy san'at sohasida o'zaro uyg'unlashuvni ko'rish mumkin.

Qadimdan Xorazm yirik xalqaro savdo markazi hisoblangan. Xorazm orqali turli xorij davlatlariga, jumladan Yaqin Sharq, Sharqiy Turkiston va Xitoyga karvonlar o'tgan. Xorazmlik savdogarlar Markaziy Osiyo hamda Sharqiy Yevropa o'rtasidagi savdoning bir qismini o'z qo'liga olgan edi. Bu yerdan xorij davlatlariga jo'natiladigan buyumlar ichida, nafaqat qimmatbaho matolar, amaliy san'at buyumlari, balki tayyor liboslar ham bo'lgan. Bu hududda o'tmishda yuksak taraqqiy etgan Xorazm davlati mavjud bo'lgan. Orol dengizining janubiy tarafidagi kengliklar qa'rida, qadimiy Xorazm davlatining yuksak madaniyatidan dalolat beruvchi ko'plab san'at yodgorliklari ko'milib yotibdi. Arxeolog olimlar bu yerdan juda noyob qadimiy san'at durdonalarini topishib, qadimgi Xorazm davlatining o'tmish qa'rida unutilib ketgan shonli tarixi sahifalarini ochib ko'rsatdilar. Ular qo'lga kiritgan manbalar ming yillar avval yashab o'tgan ajdodlarimizning boy ma'naviyati bilan yaqindan tanishtiradi. O'lis zamonlarda nozik did bilan yaratilgan loy haykalchalar, kichik terrakotalar, eramizning II asridagi Xorazm shohlari saroyi devorlariga ishlangan suratlar bu o'lkada qadimda san'at benihoya ravnaq topganidan dalolat beradi. Tuproqqal'a qadimgi Xorazm davlatining noyob me'moriy obidasi sanaladi. Bu joydan topilgan sopol buyumlarda turli jonzotlar va odamlar qiyofasi nozik mahorat bilan tasvirlangan. [1]

Eramizdan avvalgi III asrda Tuproqqal'ada Xorazm shohlarining saroylari bo'lgan. Bu yerda ko'plab ganch taxtachalar ustiga turli tabiiy bo'yoqlar bilan ishlangan devoriy rasmlar topilgan. Ushbu devoriy suratlarini chizishda qora bo'yoqlardan foydalanilgan. Lekin qizil va jigarrang ko'proq ishlatilgan.

Shuningdek, yashil, ko'k, mallarang tusli bo'yoqlar ham qo'llanilgan. Tuproqqal'a saroyi devorlari ham naqshlar, ham sujetli suratlar bilan bezatilgan. Suratlarida odamlar, qushlar, turli jonzotlar, jumladan afsonaviy mavjudotlar qiyofasi gavdalanirtilgan. Suratlaridan parchalargina saqlanib qolgani uchun devoriy tasvir sujeti mazmunini bilib bo'lmaydi. Suratning saqlanib qolgan bo'laklarini shartli tarzda "Mulozimlarni boshlab borayotgan kohin", "Arfa chalayotgan qiz", "Qizil libosli ayol" deb nomlash mumkin.

Eramizning IV asri o'hiriga kelib, ilohdar qiyofasini bir xil qolip asosida tasvirlash butunlay barham topgan. Bu paytga kelib, ilohlarni bo'yniga sharf o'ragan holda gavdalanirish keng yoyila boshlagan.

Xiva shahri esa XX asrga kelib rivojlandi. Aynan shu davrda bu hududda ko'plab me'morchilik obidalari qurildi. Bu davrda Xorazm davlatini qo'ng'rot urug'i boshqargan bo'lib, ushbu jarayon XX asr boshlarigacha davom etdi. XX asr boshlariga qadar Xiva shahri to'qimachilik va shoyini to'qish bo'yicha asosiy markaz hisoblangan.

Xorazmda ko'plab matolar ishlab chiqarilib, ular ichida eng asosiylari naqshsiz shoyi va ip gazlamadir. Shuningdek, bu hududda, nafaqat matolarni to'qish, balki bo'yash ishlari ham olib borilgan, jumladan silliq bo'yash usuli keng qo'llanilgan. Ayollar libosida yorqin ranglarni qo'llashni ma'qul ko'rishgan, jumladan qizil rang ayollarning eng sevimli rangi hisoblangan. [2]

Qora, ko'k va yashil ranglar, asosan erkaklar libosida qo'llanilgan. Jumladan, timqora rangdagi ingichka yo'l-yo'lli mato erkaklar libosida ko'p uchragan.


XX asr boshlariga kelib, Xivada bir qator matolar sirasi, jumladan shoyi, abrband tasvirli podshoyi, qizil va jigarrangli olacha kabi matolar ishlab chiqarilgan. Shoyi matosi, asosan yo'l-yo'l, sidirg'a, qizil, sariq va oq ranglarda bo'lgan. Olacha matosidan ham keng foydalanilgan, jumladan, erkaklar choponini tikishda ushbu mato asosiy matolardan biri hisoblangan. Matolarni ishlab chiqarishda, nafaqat ayollar, balki erkaklar ham jonbozlik ko'rsatishgan. Masalan, ip-gazlama matolarni ayollar ishlab chiqarishsa, shoyi to'qish

bilan esa faqat erkaklar shug‘ullangan. Xorazmda, ayniqsa shoyi to‘qish texnikasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular bilan maxsus hunarmandlar shug‘ullangan. Bunday hunarmandlar jammoba deb nomlangan.

Xorazm liboslari o‘z tarixi mobaynida o‘ziga xos xususiyatlarni saqlab qolgan. Biroq, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib an’anaviy liboslar turi asosiy shakllariga ega bo‘ldi (1-rasm).

Xorazm liboslari o‘zga hudud kiyimlari bilan umumiy asosni saqlaganligini uning bichimlarida ko‘rish mumkin. Ammo uning o‘ziga xos hududiy elementlari ham mavjud bo‘lib, boshqa hududlarga nisbatan ajralib turadi. Liboslardagi bu farqlarning paydo bo‘lishi, o‘z navbatida tabiiy-geografik sharoitlar, tarixiy va etnomadaniy jarayonlar ta’sir etganligidadir.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Xorazm milliy kiyimlarida, elementlarida turmush hayotining o‘ziga xosligi, yashash sharoitlari, aholining shimoliy va janubiy guruhlari – dehqonlar va ko‘chmanchilar madaniyati aks etganini kuzatish mumkin (2-rasm).



1-rasm. Ayollar choponi – Yelak. Xorazm. XIX asr oxiri XX asr boshi. Xiva “Ichan-qal’a”, Davlat muzey-qo‘riqxonasi.



2-rasm. Xorazm ayollari liboslarida qo‘llanilgan bezak turlari

Xorazmning chorvachilik bilan shug‘ullanadigan yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi aholisi esa, odatda jun va teridan tayyorlagan kiyimlarni kiyishgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu hudud aholisi konussimon mo‘ynali telpak hamda poyabzal sifatida bulg‘ori charm etikdan foydalanishgan. Yoz mavsumlarida ham

uzun ko‘ylaklar kiyishgan. Hattoki, Xiva xonining liboslari badavlat savdogar hamda boy amaldorlar liboslaridan farq qilmagan. Xiva xoni odatda, qo‘y terisidan tayyorlangan og‘ir telpak, bir necha cho‘zimli kanop paytava bilan etik, paxtali movut yoki shoyidan tikilgan chopon kiygan. Xorazmda liboslarini tikishda ranglar uyg‘unligiga qat’iy amal

qilish talab etilgan. Ularni tikishda esa an'anaviy bichimga asoslangan. Bunday talablarni, ayniqsa, erkaklar liboslarida ko'rish mumkin. [3]

Xorazm ayollarining libosi o'zining oddiy xushbichimi, qaviq usulida tikilgani, va bejirim hamda boshqa hududlar bezagiga o'xshamas zargarlik buyumlari bilan erkaklar libosidan tubdan farq qilgan. Xorazm ayollarining liboslari qadimgi va takrorlanmas xususiyatlarini o'zida saqlab qolganligi, ranglar birikmasi hamda bezak sifatida kashtadan foydalanmaslik holatlari bilan boshqa xalq va elatlardan ajralib turgan. Ayollar liboslari, asosan, yorqin ranglardan, jumladan pushti, och qizil, to'q qizil, to'q yoki och binafsha rangli matolardan tikilgan. Shuningdek, ularni o'ziga xos libos detallari bilan ham farqi mavjud.

Xorazm to'qimachiligida o'ziga xos naqsh va bezaklar: islimiy ornament usullari qo'llanilgan bo'lib, bularga: beshyulduz, sakkizyulduz, girix, madoxil, uchbarg, beshbarg, qarq'atish, anorgul, olmagul va boshqalar kiradi. Insonlar tomonidan yaratilgan qadimiy xunarlardan biri to'qimachilikdir. Uning tarixi yangi tosh davridan boshlangan. Dastlab matolar qo'lda to'qilgan, keyinchalik to'qimachilik dastgoxi kashf etilgach ko'proq mato to'qiladigan bo'lgan. Xar bir xudud to'qimachiligi o'z xususiyatlariga ega. To'qimachilik sertarmoq soxa xisoblanib u nimadan to'qilishiga va nima to'qilishiga qarib ixtisoslashgan. To'quv materiali sifatida asosan paxta, ipak, jun ishlatilgan. Undan, asosan, kambag'allar xarid qilgan. Olacha, shoyi, duxoba, adras kabi matolar qimmat baxolangan va ulardan aslzodalar uchun kiyim tikilgan.

“Ichan Qal'a” muzey-qo'riqxonasining “Amaliy san'at” bo'limida XVII-XIX asrlarga oid juda ko'plab nodir muzey buyumlar saqlanmoqda. Bu o'sha davrda to'qimachilik yuksak taraqqiy etganini ko'rsatadi. [4]

To'qimachilikni san'at darajasiga ko'tarilishi hunarmand-ustaning maxoratidan darak beradi. Xorazm ustalari tayyorlagan matolar asosan oq, och qizil, ko'k, yashil ranglarga bo'yalgan. Bo'yoqlar tabiiy usulda tayyorlangan. To'qimachilikda ham boshqa sohalardagi kabi pechaki, marg'ula, morpech, qo'chqorak, murchgul, islimiy naqsh turlari qo'llanilgan.

Matolardan yaktak, shalvar, to'n, salla, belbog', ayollar yelagi, dasturxon, joynamoz va boshqa buyumlar tayyorlangan. O'rta asrlarda kiyim, uning rangi ma'lum bir tabaqaga mansublikni ham anglatgan, undan tashqari o'z davrida Xorazmlik erkaklar paxtadan va kumushdan ishlangan, ayollari ipak va tilladan tayyorlangan buyumlarni kiyib ulardan foydalanaganlar. Xazinada doimo turli xil sarpolar saqlangan va xon nazariga tushgan kishilar har xil to'nlar bilan taqdirlangan. [5]

Xulosa. Xorazm viloyatida quroq texnikasidan tikilgan buyumlarni asosan qariya ayollar, yani buvilar qiz nabiralarning kelinlik sepiga atab tikishgan. Ular quroq tikish uchun asosan oq va qora ranglardagi matolardan foydalanishgan. Buning ma'nosi hayotning o'n besh kuni qorong'u bo'lsa, o'n besh kuni yorug'dir deganidir. Quroq tikish uchun yahlit matoni kesishdan oldin irim qilib bir chetidan kertik berib qirqishgan.

ADABIYOTLAR:

1. U.S.Rakhmatullaeva, N.Mirfayazova, K.Xoliqov, S.Toshpulatov, A.Nazarov. Traditional uzbek embroidery history and analyses of their symbolic meanings. Journal of Scientific and Technical Institute of Namangan Institute of Engineering Technology, 2019.
2. U.S.Rakhmatullaeva, M.F.Turapova. Types of felting technique and its use in modern clothes. Internationel Conference on Humanities, Education and Science. Californiya USA Conference, 2022.
3. Rakhmatullaeva U.S. Clothing culture of Uzbek people: traditional and modern clothes(philosophical and cultural approach) dis.Tashkent, 2010y.
4. H.H.Kamilova, Z.I.Rakhimova, U.S.Rakhmatullaeva. National Uzbek clothes and traditional values. Monograph. G.Gulyam publishing and printing house. – Tashkent-2018y.-p.330.
5. Rakhmatullaeva U.S., Mirziyodova K., Kamolova F., & Berdieva C. (2022, February). Analysis of the symbolical significance of the history of the national skullcap by region and its regularities. In Conference Zone (pp. 302-305).

U.S.Raxmatullayeva - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, “Moda va dizayn” kafedrasini prof., f.f.n.
X.H.Kamilova - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, “Moda va dizayn” kafedrasini prof., t.f.d.
K.B.Mirziyodova - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti doktoranti
M.K.Rasulova - Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, “Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring” kafedrasini prof., t.f.d.

To'laboyeva Sh.S., Kasimova A.B. Maxsus kompozitsion korset buyumlarini ishlab chiqarish va dizayn jarayonlarini tahlil qilish	177
Худанов У.О., Кадиров Т.Ж., Шарифов Г.Н. Применение коллагена в процессе производства цемента ...	181
Abdurahimov X.A., Xudoyberdiyeva D.A. Mahalliy xom-ashyolardan modifikatsiyalangan kaogulyantlar olish va ular bilan oqava suvlarni tozalash	185
Tursunova F.J., Amonov M.P. Neft-gaz sanoatida qo'llanilgan katalizatorlarni qayta ishlash texnologiyasini o'rganish	188
Ibragimov T.E., Nurullaev Sh.P. Clay adsorbents Cr ⁶⁺ adsorption ionization	192
Махмудова Н.Х. Исследование морозо- и коррозионностойкости бетонов гидротехнического и дорожного назначения	195
Хасанов А.С., Ахмедов Ў.Ч., Хакимов К.Ж. Обжиг сульфидных ренийсодержащих концентратов	198
Raxmatullayeva U.S., Kamilova X.N., Mirziyodova K.B., Rasulova M.K. XIX-XX asrda Qashqadaryo va Surxondaryo milliy kostyumi materiallari. Surxondaryo va Qashqadaryo aholisini kostyumlari.....	202
Рахимов Х.Ю., Абдурахманова С.П., Ганиева Х.Б., Маматова Н.Н. Разработка композиционных химических реагентов для стабилизации буровых растворов	204
Raxmatullayeva U.S., Kamilova X.N., Mirziyodova K.B., Rasulova M.K. XIX-XX asrlarda Xorazm aholisining milliy kostyumi, matosi va uning tuzilishi xususiyatlari	206
Уринов А.А., Кадырханов Ж.М. Современное состояние и перспективах развития противокоррозионной защиты магистральных трубопроводов с целью повышения их стойкости и долговечности	209
Негматов С.С., Исмаилов Р.И., Раупова Д.Н., Рахимов Х.Ю., Мусабеков Д.Х. Разработка эффективных составов композиционных химических реагентов - деэмульгаторов для обезвоживания эксплуатационных масел металлургических предприятий	211
Негматов С.С., Мамасолиев Э.М. Исследование влияния параметров шероховатости и свойств материала на коэффициент трения зацепления хлопковых волокон при взаимодействии с модельным эпоксидным образцом	216
Рахимов Х.Ю., Юсупходжаева Э.Н., Аюбова И.Х., Халматова Н.Г., Билалова Д.Ж. Нефть-газ бургилаш кудукларида қўлланиладиган маҳаллий хом ашё ва ишлаб чиқариш чиқиндилари асосида композицион эмульгаторлар таркибини олиш ва уларни физик-кимёвий ва технологик хоссаларини ўрганиш	220
Уринов А.А., Кадырханов Ж.М. Разработка композиционных материалов для защиты от коррозии магистральных газонефтепроводов, обладающих повышенной химической адгезией	222
Кузибеков С.К., Баракаев Н.Р. Физико-механические и биохимические свойства соевых бобов и расчет траектории движения воздушного потока в процессе очистки	224

7. Вести из лаборатории

Негматов С.С., Хурсанов А.Х., Негматов Ж.Н., Негматова К.С., Эрниёзов Н.Б. Мис-молибден рудалардан олтин ва кумушни ажратиш олиш учун импорт ўрнини босувчи композицион кимёвий реагентларнинг самарали таркиблари ва олиш технологиясини ишлаб чиқиш долзарблиги	228
Тургунов А.А., Абед Н.С., Салимова С.А., Икрамова М.Э. Разработка композиционных материалов и применение их в рельефных элементах технологической оснастки строительных изделий	230
Улдугова М.М., Талипов Н.Х., Негматов С.С. Композиционные гипсовые материалы для производства строительных изделий	231
Абдукажорев А.А., Косимов Ш.Б., Абед Н.С., Негматов Ж.Н., Тухташева М.Н. Исследование антифрикционно-износостойких свойств композиционных полипропиленовых материалов, работающих при фрикционном взаимодействии с хлопком-сырцом, для применения в рабочих органах хлопкоперерабатывающих машин и механизмов	233
Касымова М.Н., Негматова К.С. Исследование физико-механических и потребительских свойств, а также прочности окрасок хлопчатобумажных тканей, окрашенных красящими композициями	234
Талипов Н.Х., Матякубова К.М. Влияние отхода сахарного давода-дефеката на процесс формирования структуры полугидрата сульфата кальция	235
Норхуджаев Ф.Р. Цементациялаш ёрдамида пухталашнинг технологик режимларини пўлатнинг ейилишга бардошлиликка таъсирини тадқиқ қилиш	237
Tashbayeva F.K., Ermatova A.A. Distribution of heavy and toxic metal ions in the environment	240
Негматов С.С., Эсанмуродов Ш.В., Негматова К.С., Салимова С.А., Икрамова М.Э. Исследование физико-химических свойств ионов минерализованных пластовых вод	241